



TARIXIY-MADANIY MEROS OMILI VA UNING YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI O'RNI

Erbo'tayeva O'g'iloy Suyunovna

Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy-madaniy meros tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Maqola milliy qadriyatlar, buyuk ajdodlarimiz merosi va an'anaviy urf-odatlarining zamonaviy yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini ochib berish bilan birga, globallashuv sharoitida madaniy merosni asrab-avaylash va uni yosh avlod tarbiyasida samarali qo'llash mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: meros, tarbiya, qadriyatlar, yoshlar, an'analar, g'urur, ma'rifat, ma'naviyat, milliy o'zlik.

Abstract: This article examines the concept of historical and cultural heritage, its essence, structural components, and its role in shaping the spiritual and moral education of young people in Uzbekistan during the years of independence. The article explores the influence of national values, the legacy of our great ancestors, and traditional customs on the worldview of modern youth. Furthermore, it is aimed at providing a scientific basis for the preservation of cultural heritage and the development of effective mechanisms for its integration into the spiritual and moral education of the younger generation in the context of globalization.

Key words: heritage, education, values, youth, traditions, national pride, enlightenment, spirituality, national identity.

Har qanday millatning kelajagi uning yosh avlodi qanday tarbiya topayotganiga bevosita bog'liqdir, zero yoshlar ma'naviy dunyosining boyligi, axloqiy poklik darajasi va milliy o'zlikni anglash darajasi butun bir jamiyatning taraqqiyot yo'nalishini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri aynan yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ham o'z ifodasini topgan [7, 4-b.]. Zero, ming yillik tarixga ega bo'lgan xalqimizning boy madaniy-ma'naviy xazinasini, buyuk allomalar va mutafakkirlarning ilmiy-falsafiy merosi, xalq og'zaki ijodi namunalari, milliy urf-odat va an'analar yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, halollik va poklik kabi yuksak fazilatlarini shakllantirishning tabiiy va samarali manbai bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va turli madaniyatlarning o'zaro aralashuvi sharoitida milliy qadriyatlarni





asrab-avaylash, ularni yosh avlod ongi va qalbiga singdirish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Ma'naviyatga e'tibor - kelajakka e'tibor" g'oyasi ham aynan shu masalaning davlat siyosati darajasida qanchalik muhim ekanligidan dalolat beradi [4, 27-b.]. Shu bois tarixiy-madaniy merosning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish, uni amaliyotga tatbiq etishning samarali yo'llarini izlab topish bugungi kunning eng dolzarb pedagogik-ijtimoiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tarixiy-madaniy meros tushunchasi o'ta keng qamrovli bo'lib, u nafaqat moddiy yodgorliklarni, balki nomoddiy madaniy boyliklarni ham o'z ichiga oladi. Moddiy meros tarkibiga tarixiy me'moriy obidalar, saroy va masjidlar, maqbaralar, muzey eksponatlari, arxeologik topilmalar, qadimiy qo'lyozmalar kiradi, ular orqali yosh avlod ajdodlarimiz erishgan yuksak san'at va me'morchilik cho'qqilarini bevosita ko'z bilan ko'rish, his qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Nomoddiy meros esa xalq og'zaki ijodi namunalari - dostonlar, ertaklar, maqol va matallar, milliy bayramlar, urf-odat va marosimlar, an'anaviy hunarmandchilik ko'nikmalari, milliy taomlar tayyorlash san'ati kabi bir necha avlodlar davomida og'izdan-og'izga, qo'ldan-qo'lga o'tib kelayotgan qadriyatlarni qamrab oladi [6, 112-b.]. Ushbu ikki turdagi meros bir-birini to'ldirib, yaxlit bir tizimni tashkil etadi va aynan shu yaxlitlik yosh insonning dunyoqarashini shakllantirishda kompleks ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Alohida ta'kidlash joizki, tarixiy-madaniy meros faqat o'tmishning yodgorligi emas, balki hozirgi va kelajak avlodlar uchun tarbiyaviy salohiyatga ega tirik an'analar tizimidir. Har bir xalqning o'ziga xos tarixiy taqdiri, u bosib o'tgan murakkab yo'l, erishgan yutuq va mag'lubiyatlari uning madaniyatida o'z aksini topadi, shu sababli yoshlarni ana shu merosga oshno qilish ularda tarixiy xotira va milliy g'ururni tarbiyalashning eng ishonchli vositasi hisoblanadi [8, 56-b.]. Milliy o'zlikni anglash, aynan o'z ildizlarini, kim ekanligini, qaysi xalq va madaniyatga mansubligini teran his etish - bugungi kunda yoshlar orasida ayrim begona g'oyalar va yot madaniy ta'sirlarning oldini olishning eng samarali "immunitet" vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar - bu xalqning asrlar davomida shakllangan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan, jamiyat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladigan axloqiy-ma'naviy me'yorlar tizimidir. O'zbek xalqiga xos mehmondo'stlik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g'amxo'rlik ko'rsatish, mahalla-ko'y an'analariga sodiqlik, oilaviy qadriyatlarni e'zozlash kabi fazilatlar aynan tarixiy-madaniy meros orqali shakllanib, bugungi kungacha yetib kelgan [2, 34-b.]. Yoshlarni ushbu qadriyatlar ruhida tarbiyalash ularda faqat bilim va ko'nikmalarni emas, balki insoniy fazilatlar, ijtimoiy mas'uliyat hissi va yuksak axloqiy me'yorlarni ham shakllantiradi, bu esa kelajakda barkamol va komil inson sifatida jamiyatga foyda keltirishning muhim shartidir.





Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdagi o'zni bilan ham belgilanadi [3, 19-b.]. Zamonaviy axborot makonida yoshlar turli xil g'oya va oqimlarning ta'siriga tez tushishi mumkin, biroq o'z tarixi, madaniyati va qadriyatlarini chuqur bilgan, ularga hurmat bilan qaraydigan yosh inson bunday salbiy ta'sirlarga nisbatan ancha barqaror bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik tashkilotlari zimmasiga yoshlarga milliy qadriyatlarni to'g'ri va izchil tarzda singdirish vazifasi yuklatiladi, bu esa uzluksiz va tizimli pedagogik jarayonni talab etadi [3, 41-b.].

O'zbek xalqi jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar, mutafakkirlar va davlat arboblari yetishtirib bergan noyob tarixiy zaminda yashaydi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur kabi buyuk siymolarning ilmiy, adabiy va ma'rifiy merosi nafaqat o'zbek xalqi, balki butun insoniyat sivilizatsiyasining bebaho boyligi hisoblanadi [6, 245-b.]. Ushbu buyuk zotlarning hayoti va faoliyati, ular qoldirgan ilmiy-falsafiy va badiiy asarlar yoshlar uchun eng yuksak ma'naviy-axloqiy ideallar namunasi bo'lib xizmat qiladi, chunki ularning har biri ilm-fanga, adolat va insonparvarlikka, mehnatsevarlik va vatanga muhabbatga misol bo'la oladigan hayot yo'lini bosib o'tgan. Xususan, Alisher Navoiyning insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan asarlari, Amir Temurning "Kuch - adolatdadir" degan mashhur hikmatli so'zi, Imom Buxoriyning ilm izlashdagi bardosh va sabot namunasi bugungi yoshlar uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas [8, 78-b.]. Ta'lim jarayonida ushbu buyuk siymolarning hayoti va merosini chuqur o'rganish, ularning asarlaridan namunalar keltirish, ushbu allomalarga bag'ishlangan muzey va yodgorlik majmualariga tashrif buyurish kabi tadbirlar yoshlarda nafaqat bilim, balki his-tuyg'u darajasida milliy g'urur va ma'naviy yuksalishni uyg'otadi. Shu bois zamonaviy pedagogikada tarixiy shaxslar merosini shunchaki nazariy bayon qilish emas, balki ularni yoshlar hayotiy tajribasi va qadriyatlar tizimiga bog'lab, amaliy tarbiyaviy vosita sifatida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi [5, 63-b.].

Tarixiy-madaniy merosni yoshlar tarbiyasida samarali qo'llash uchun kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi. Birinchi navbatda, ta'lim muassasalarida - maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar va oliy ta'lim bosqichlarida - milliy tarix, adabiyot va madaniyatga oid fanlarning mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yanada boyitish, o'quvchi va talabalarni faol tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish muhim ahamiyatga ega [5, 91-b.]. Shuningdek, muzeylar, tarixiy obidalar, milliy bog'lar va yodgorlik majmualariga uyushtiriladigan ekskursiyalar, milliy bayramlar va marosimlarni nishonlash tadbirlari, an'anaviy hunarmandchilik ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish yoshlarda meros bilan bevosita jonli



aloqani ta'minlaydi, bu esa faqat kitobiy bilimga qaraganda ancha chuqur va uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish - oila institutining tarbiyaviy salohiyatidan foydalanishdir. Oila - bu bola ongida birinchi milliy qadriyatlar shakllanadigan asosiy makon bo'lib, ota-onalar va katta avlod vakillari tomonidan uzatiladigan an'analar, oilaviy urf-odatlar, bobo-buvilar tomonidan aytib beriladigan xalq ertaklari va rivoyatlari bolaning ma'naviy dunyosini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi [1, 15-b.]. Uchinchi yo'nalish sifatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni ko'rsatish mumkin, chunki bugungi yoshlar ko'proq raqamli makonda vaqt o'tkazishini hisobga olib, milliy meros va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi sifatli video-kontent, elektron resurslar, mobil ilovalar yaratish orqali ularga zamonaviy va qiziqarli shaklda yetkazish mumkin [1, 33-b.]. Mahalla institutining o'rni ham alohida ta'kidlanishi lozim, chunki o'zbek mahallasi asrlar davomida o'zaro yordam, hamjihatlik va an'analarga sodiqlik maktabi bo'lib xizmat qilib kelgan.

Shu bilan birga, tarixiy-madaniy merosni yoshlar tarbiyasida qo'llash borasida bir qator muammolar ham mavjud. Globallashuv jarayonlari ta'sirida ayrim yoshlarda milliy qadriyatlarga nisbatan qiziqishning susayishi, xorijiy ommaviy madaniyat namunalariga ko'proq ergashish tendentsiyasi kuzatilmoqda [4, 52-b.]. Bundan tashqari, ta'lim dasturlarida milliy meros va qadriyatlarga oid mavzularning ba'zan yuzaki va faqat nazariy tarzda berilishi, amaliy-tarbiyaviy jihatning yetarli darajada e'tiborga olinmasligi ham samaradorlikni pasaytiruvchi omillardan biridir. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun, birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonini interaktiv va amaliyotga yo'naltirilgan usullar bilan boyitish, ikkinchidan, yoshlarning o'zlarini madaniy-tarixiy tadbirlarni tashkil etishga faol jalb qilish, uchinchidan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni ilg'or va zamonaviy uslubda targ'ib qilish, to'rtinchidan esa oila, maktab va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarur bo'ladi [7, 11-b.].

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarixiy-madaniy meros yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining eng muhim va tabiiy manbalaridan biri bo'lib, uning tarbiyaviy salohiyatidan to'g'ri va samarali foydalanish millatning kelajagini belgilovchi strategik vazifa hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz merosi, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik va yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishning ishonchli poydevoridir. Zamonaviy globallashuv sharoitida ushbu merosni asrab-avaylash, uni yosh avlodga to'g'ri va jozibali shaklda yetkazish uchun ta'lim tizimi, oila va jamoatchilik institutlarining hamkorlikdagi, izchil va tizimli faoliyati talab etiladi. Faqat shu tariqa barkamol, milliy g'ururga to'la, ma'naviy jihatdan yetuk va zamonaviy bilimlarga ega yosh avlodni tarbiyalash mumkin bo'ladi, bu esa mustaqil O'zbekistonning kelajakdagi barqaror taraqqiyotining muhim kafolatidir.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'aybullaev O., Xoliqberganov K. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. 184 b.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176 b.
3. Mahmudov N. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - Toshkent: Fan, 2015. 212 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - Toshkent: O'zbekiston, 2019. 400 b.
5. Munavvarov Z.I. Pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2018. 256 b.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003-2006.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
8. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. - Toshkent: Akademnashr, 2019. 320 b.

